

Qamrab olingan mavzular (taqvim mavzu reja asosida):

1. “Oliy Majlis” matni. Matn o‘qish.
2. Matn asosida topshiriqlar.
3. Matn o‘qish. E’lon
4. “Olmoshsiz matn” topshirig‘i.

Tahrir qilish uchun tavsiya etilgan matn:

Kitob – insonni eng yaqin do‘sti va maslaxatchisi. Kitob fikrlash quroli, kitob xazinalar kaliti, kitob tafakkur manbayi bo‘lgani uchun ham qabilamiz uni nonday aziz, mo‘tabar va muqaddas deb hisoblagan. Shuning uchun kitobga muhabbat, uning qadrlash, o‘qishga ishtiyoq xalqimizning qon-qonidan singib ketgan.

Kishining madaniyati uni kitobda aks etadi. Kitobxonlik oiladagi muhitga ham bog‘liq. Marifatli oilalarda kitobga e’tibor farzandlar tarbiyasida qo‘l keladi. Inson o‘zining fikrlash qobiliyati, ma’naviy dunyosi bilan tirik. Odamni boshqa mavjudodlardan ajratib turuvchi omillardan biri ham uning ma’naviyati hisoblanadi.

Xo‘sh, biz insonlar ma’naviy yemishni qayerdan olamiz? Albatta, bilimlar manbayi bo‘lmish kitobdan. Kitob – bebaho boylik ekani barchamizga ma’lum. Birorta san’at turini, televideniya va radio, zamonaviy kompyuterlar imkoniyati va afzalliklarini inkor qilmagan holda aytish mumkinki, televideniya, radio va kompyuterlar kitob o‘rnini bosa olmaydi. Ayniqsa, badiiy kitoblar har bir kishida odamiy fazilatlarini kuchaytiradi, dunyoqarashini kengaytiradi.

Bugungi kunda bolalarga xos kitoblarning ham soni ortib bormoqda. Bolalarga xos kitoblar sonining ortishi o‘quvchilar orasiga kitobxonlik madaniyatining oshishiga sabab bo‘lmoqda. Kitobxonlik madaniyatining oshishi suluv yurtimizning taraqqiyotiga o‘z xissasini qo‘shmay qolmaydi.

Kitob haqida fikirlar juda ko‘p. Kitob bilan juda ko‘p muammolarni hal qilish mumkun. Kitobda olgan bilimingiz sizga hamisha yordam beradi. Shuning uchun kitob mutolla qilishni doimiy udumingizga aylantiring.

Matn tahrir qilishda o‘quvchiga qo‘yiladigan talablar:

1. Husnixat talablariga amal qilgan holda matnda imloviy xato yozilgan so‘zlarni to‘g‘rilab ko‘chiring.
2. Matnda noto‘g‘ri qo‘llangan qo‘shimchalarni mosiga almashtirib yozing.
3. Matnda noo‘rin qo‘llangan so‘zlarni aniqlang va ularni mosiga almashtirib yozing.
4. Matnda takror qo‘llangan so‘z va jummalarni ko‘rsatish olmoshlari bilan almashtirib ko‘chiring.

Baholash mezonlari (25 ball)

1. Savodxonlik hamda husnixat talablarining bajarilganligi	6 ball
Imloviy xato yozilgan soʻzlarni toʻgʻrilab, husnixat talablariga amal qilgan holda yozgan boʻlsa –	6 – 5 ball
Imloviy xato yozilgan soʻzlarning ayrimlarini toʻgʻrilab yozgan, husnixat talablariga amal qilgan boʻlsa –	4 – 3 ball
Imloviy xato yozilgan soʻzlarni qisman toʻgʻrilay olgan, ammo husnixat talablariga amal qilmagan boʻlsa –	2 – 1 ball
2. Qoʻshimchalarni toʻgʻri qoʻllay olishi	6 ball
Nooʻrin qoʻllangan qoʻshimchalarni toʻgʻrilab yozgan boʻlsa –	6 – 5 ball
Nooʻrin qoʻllangan qoʻshimchalarni toʻgʻrilab yozgan-u, ammo ayrimlarini boshqa qoʻshimchalar bilan chalkashtirib qoʻllagan boʻlsa –	4 – 3 ball
Nooʻrin qoʻllangan qoʻshimchalarni toʻgʻrilab yozishda talaygina xatoliklarga yoʻl qoʻygan boʻlsa –	2 – 1 ball
3. Soʻzlarni toʻgʻri qoʻllay olishi	6 ball
Matndagi notoʻgʻri qoʻllangan soʻzlarni maʼnodoshlari bilan almashtira olgan boʻlsa –	6 – 5 ball
Matndagi notoʻgʻri qoʻllangan soʻzlarni maʼnodoshlari bilan almashtirgan, ammo ayrim soʻzlar maʼnodoshlarini toʻgʻri qoʻllay olmagan boʻlsa –	4 – 3 ball
Matndagi notoʻgʻri qoʻllangan soʻzlarni uning maʼnodoshlari bilan deyarli almashtira olmagan boʻlsa –	2 – 1 ball
4. Olmoshlarni qoʻllay olishi	7 ball
Takror qoʻllangan soʻz va jummalarni koʻrsatish olmoshlari bilan almashtirib yozgan boʻlsa –	7 – 6 ball
Takror qoʻllangan soʻz va jummalarni koʻrsatish olmoshlariga toʻliq almashtira olmagan boʻlsa –	5 – 4 ball
Takror qoʻllangan soʻz va jummalarni koʻrsatish olmoshi bilan almashtirishda talaygina xatoliklarga yoʻl qoʻygan boʻlsa –	2 – 1 ball
Jami:	25 ball